

**ABU JA'FAR IBN JARIR TABARIY SHAXSIYATI VA
TAFSIRINING AHAMIYATI**

Sultonova Durdon Shuxratilla qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Islomshunoslik"

mutaxassisligi 2-kurs magistratura talabasi

+998974030056

Annotatsiya: Abu Ja'far ibn Jarir Tabariy o'rta asrlarda yashagan mufassir, muarrix, mujtahid sifatida tanilgan alloma bo'lib, uning ko'plab asarlari orasida o'ziga xos shuhrat qozongan asari bu "Jome' al-bayon fiy ta'vil al-Qur'on"dir. Bu asar Qur'onga yozilgan tafsir hisoblanib, tafsir sohasida eng ko'p e'tirof etiluvchi manba sifatida tilga olinadi. Ushbu maqolada "Jome' al-bayon fiy ta'vil al-Qur'on" tafsirining yozilish tarixi, uslubi hamda tafsir sohasidagi ahamiyati tahlil etildi.

Kalit so'zlar: Mujtahid, muarrix, mufassir, tafsir, ta'vil, hadis, isroiliyat, zaif, hasan, sahih.

Dunyoning turli mintaqalarida Qur'oni Karim va unga bog'liq ilmlarni o'rganishga bo'lган sa'y-harakatlar tobora dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Jahon ilmiy tadqiqot markazlarida asl manbalarni o'rganish va ularni tahlil qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu kabi tadqiqotlar Qur'onning ma'no-mazmuni, tafsirini, nozil bo'lish sabablarini aniq bilmay, unga noto'g'ri yondashish natijasida islomga e'tiqod qiluvchilar orasida ixtilof, qarama-qarshilik kabi salbiy holatlar yuzaga kelishini oldini olishga qaratilgan. Oyatlarni asl mazmunini tushunishda mufassirlarning hayot yo'llarini va tafsirlarini o'rganish, ularning ijtimoiy, diniy, siyosiy va madaniy hayotdagi o'rmini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mufassirlar asarlarini qiyosiy o'rganish bilan hozirgi kun nuqtai nazaridan dolzarb bo'lган masalalarning ushbu manbalarda bayon etilgan ilmiy javoblarini jamoatchilikka yetkazish ham jiddiy ishlardan sanaladi.

Tarixga nazar solsak, oyatlarni turli usullarda tafsir qilgan mufassirlar ko'p bo'lishgan. Qur'oni asl holida talqin qilish, Qur'on ilmlari vazifasi bilan "mufassir" olimlar shug'ullanganlar. Ibn Jarir Tabariy tafsiri esa, bu borada ma'sur yo'nalishdagi tafsir sohasida birinchilardan bo'lib mukammal kitob hisoblangan. Ahli sunna val jamoa ulamolari keng foydalangan naqliy tafsirlar orasida "Tafsiri Tabariy" nomi bilan mashhur bo'lган "Jome' al-bayon fiy ta'vil al-Qur'on" asari muallifi bo'lган, mujtahid, mufassir olim Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir ibn Yazid ibn Kasir ibn G'olib ibn Tabariy 224/839-yilda Eronda tavallud topgan. 236/851-yillarda Bog'dod, Ray, Kufa, Basra kabi ko'plab yurtlarga ilm talabida safarga chiqdi. Bu zot mufassir, muarrix va faqih sifatida tanilib, "Mufassirlar imomi" laqabini olgan.

Ko‘plab olimlar Abu Ja’far ibn Jarir Tabariyni yuksak ilm sohibi sifatida e’tirof etib, Qur’on hofizi hamda uni chuqur tushungan, hukmlarini yaxshi bilgan, Payg’ambar s.a.v sunnatlarini, uning sahih va zaifini, roviylarining ishonchli yoki ishonchsizini yaxshi ajratadigan, tobeinlarning orasidagi muxoliflarini ham farq qiladigan o‘ta farosatli, ma’rifatli, o’tkir fikrli olim ekanini ta’kidlab o’tishgan. Xatib Bag‘dodiy ibn Jarirga “ziyrak olim” deb, quyidagicha ta’rif beradilar: “Alloh taoloning kitobini yodlagan, qiroatlar bilan tanilgan, ma’nolarini tushungan, Qur’on ahkomlarida faqih, Rasullulloh (s.a.v)ning sunnatlariga amal qilgan va unda qoim bo’lgan, nosix va mansux ilmini, sahoba va tobeinlarning qavlini chuqur tushungan “faqih olim” deb e’tirof etgan¹. Tabariy fiqh va tarix ilmlarini mukammal egallab, Qur’on, hadislar bo‘yicha arab tilida 20 dan ortiq asarlar yozgan. Qur’oni karim tafsiriga bag‘ishlangan “Jome’ al-bayon fiy ta’vil al-Qur’on” asari uni musulmon olamiga tanitgan.

Shayx Abu Ishoq Sheroyi “Fi tabaqotil mujtahidiyn” kitobida Tabariyni mujtahidlar safida ekanini ta’riflab, shunday yozgan: “Tabariyning “al-jaririyya” deb nomlangan o‘z mazhabi va unga ergashuvchilari bo’lgan. Tabariy bu mazhabni uzoq bahislardan so‘ng tuzgan; odamlar orasida uning mazhabiga ergashuvchilar ham topilgan, biroq ko‘plab islom mazhablari singari bu mazhab ham bizning zamonimizgacha yetib kelmagan². Aytishlaricha, ibn Jarir Tabariy mujtahidlik darajasiga yetmasdan avval, imom Shofeiy mazhabida bo’lgan³. Imom Suyutiy “Tabaqotul mufassiriyn”⁴ kitobida ibn Jarir Tabariyning avval Shofeiy mazhabida bo’lganini, so‘ngra o‘zi mustaqil bir mazhab tuzganini, uning ham taqlidchilari va tobelari bo’lganini, uning mazhabida ham tanlovlari va tagi bo‘s sh masalalar bo’lganini hamda ibn Jarir Tabariy shariatda usul va furu’ xususida juda ko‘p kitoblar yozganini aytadi. Ibn Jarirning tafsiri naqliy va aqliy tafsirlar orasida eng mashhuri, eng mo‘tamad va ishonchli hisoblanadi. Chunki unda ham ijтиҳод qilish, bahs qilish va fikrlar bayon etish, gaplarning quvvatlisisini kuchsizidan tarjix qilishga e’tibor qaratilgan.

Ibn Jarir Tabariy tafsirlari haqidagi fikrlarga e’tibor bersak, islom ulamolarining hammasi bu tafsirni yuksak baholab, har qanday mufassir tafsir sohasida asar yozishidan avval ”جامع البيان عن تأويل أي القرآن“ (“Jomeul bayon an ta’vili oyil Qur’on”)ni mutolaa qilmasa maqsadi hosil bo‘lmasligini aytganlar. Muallif matnlarni naqlar, ularning roviylariga alohida e’tibor qaratgan holatda, sodda, sof va ravon arab tilida tuzgan, shu bilan bir qatorda hadislar bilan tafsir etilishi jihatidan naqliy tafsirlarning eng sarasi hisoblanadi. Uni o‘qigan tafsir tolibi natijada ham Qur’oni karim ma’nolarini

¹Rahimjonov D. Tafsir matnlari. 1-qism: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. – B. 76.

² Samee-Ullah Bhat. The life and Work of Muhammad Ibn Jarir al-Tabari.- Khazanah Pendidikan Islam, Vol. 4 No. 1: P. 29-30

³ A.Muhammad Husayn. Sharhul mufassiriyn.- Bayrut: Dor al-qutub al-ilmiyya, 2008. – B.10 ;

⁴ Shamsiddin Muhammad ibn Ali Dovudiy. Tabaqot al-mufassiriyn. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1983. – J. II. – B. 110 .

o‘rganadi, ham sof arab tilining tabiatini uning botiniy aqlidan joy oladi. Ushbu asarning shu kungacha ko‘plab nusxalari nashr etilgan va ba’zilari quyida keltiradi:

- Madinadagi Mahmudiyya kutubxonasida, hozir esa Abdulaziz nomidagi kutubxonasida saqlanmoqda; ushbu nusxa 5 jilddan iborat; 1006, 634, 766, 870 va 612 varoqdan iborat;

- Turkiyadagi Muhammadmurod kutubxonasida 2 nusxasi bor bo‘lib, ular 5/4 jilddan iborat;

- Istanbuldagagi Ayo Sofiya kutubxonasida;

- Istanbuldagagi Otif Afandi kutubxonasida X asrga oid nusxasi;

- Tunisdagagi Ahmadiyya kutubxonasida saqlanib kelmoqda va u XII asrga oid 8 juzdan iborat⁵.

Navaviy Tabariy haqida shunday yozadi: “Uning tarixga oid mashhur kitobi va tafsiri borki, undek hech kim yozmagan keyinchalik mazkur tafsirning mukammal qo‘lyozmasi topilgan va kitob holiga keltirildi. Ibn Jarir tafsirlari haqidagi fikrlarga e’tibor bersak, islom ulamolarining hammasi bu tafsirni yuksak baholab, har qanday mufassir tafsir sohasida asar yozishidan avval “Jome’ al-bayon fiy ta’vil al-Qur’on”ni mutolaa qilmasa maqsadi hosil bo‘lmasligini aytganlar. Imom Suyuti r.a mazkur tafsir haqida: “Tafsirlarning eng ulug‘i-Muhammad ibn Jarirning tafsir kitobi. Sababi unda tarjihot, erob va istinbot mavjud bo‘lib, shu jihatlari bilan avvalgi tafsirlardan ajaralib turadi”. Abu Xomid Isfaroyiniy: “Agar biror kishi Tabariy tafsiridan ortiqrog‘ini topaman deb Xitoygacha borsa ham, bu safar uning uchun ko‘p emas”, – degan. “Lisonul mezon” asari muallifi shunday rivoyat qiladi: “Ibn Huzayma ibn Jarirning tafsirini ibn Holuyadan sorab oladi va bir necha yildan keyin omonatni egasiga topshirayotib, shunday deydi: “Men ibn Jarirning tafsirini boshidan oxirgacha ko‘rib chiqdim va amin bo‘ldimki, yer yuzida ibn Jarirdan olimroq odam yo‘q ekan”.

Tabariy tafsiri naqliy tafsirlar orasida tutgan o‘rni beqiyosdir, shu bilan bir qatorda yana bir e’tiborli jihat shuki, Qur’on oyatlarning deyarli har biri ko‘plab hadislar bilan yoritilgan⁶.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad ibn Jarir Tabariy asarda Qur’on oyatini Qur’on oyati bilan, Qur’on oyatini hadis va sahobiylar so‘zлari asosida, ba’zi o’rinlarda, Ahli kitoblarga oid oyatlar tafsirida isroiliyot rivoyatlaridan keng istifoda etadi. Ibn Jarir Tabariy har bir rivoyatini roviylar sanadi bilan keltirsa ham, aksar hollarda roviylarning sahih yoki zaif ekanligi to‘g‘risida ma’lumot keltimagan. Shunga qaramasdan, Ibn Jarir Tabariy ba’zi o’rinlarda o‘zining o‘ta ekanini namoyon etadi. Hususan, roviylarningadolati va ba’zi nuqsonli jihatlarini ochiq bayon etib, inshonchsiz rivoyatlarning tanqid qilib, o‘zining fikr mulohazasini bildirib o’tadi. Abu Ja’far ibn Jarir Tabariy ko‘p qirrali, sermahsul olim hisoblanadi. U erkin fikr va

⁵ Rosenthal, The History of Al-Tabari, Tarikh Al-Tabari, Beirut: Dar Sader, 2008. – P. 23

⁶ Maxsudov D.R. Tafsir ilmiga kirish. – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: “Qaqnus” nashriyoti, 2019. – B. 186

keng yondoshuv tarafdori sifatida har bir masalaga teran ko‘z bilan qarashi bilan boshqa olimlardan ajralib turadi. U yashagan davr va ilmiy muhit Tabariyni yanada chuqur bilim olish va xolis fikr yuritishga undagan. Nafaqat tarix, balki tafsir, nahv, qiroat ilmida ham ulkan bilim sohibidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abu Ja’far Muhammad Ibn Jarir at-Tabariy. Jomiul bayon fiy ta’vil Qur’on. – Bayrut: Dorul fikr, 1975. – 8853 b.
2. Samee-Ullah Bhat. The life and Work of Muhammad Ibn Jarir al-Tabari.- Khazanah Pendidikan Islam, 2020. – 35 p.
3. Rahimjonov D. Tafsir matnlari. – Toshkent: “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. – 180 b.
4. Maxsudov D.R Tafsir ilmiga kirish. – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – Toshkent.: “Qaqnus” nashriyoti, 2019. – 186 b.
5. Shamsiddin Muhammad ibn Ali Dovudiy. Tabaqot al-mufassiriyn. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1983. – 165 b.
6. Vagda, G. (1973). "Isrā’īliyyāt". Encyclopaedia of Islam. Vol. 4 (2nd ed.). Brill Academic Publishers, – 216 p.
7. Rosenthal, The History of Al-Tabari, Tarikh Al-Tabari, Beirut: Dar Sader, 2008. – 130 p.